

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Odilov Lazizbek G‘ayratjon o‘g‘li

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi

3-kurs kursanti

Annotatsiya: *mazkur maqolada profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *profilaktika, inspektor, huquqbuzarlik, fuqaro, jabrlanuvchi, rehabilitatsiya.*

Profilaktika (katta) inspektori o‘ziga birlashtirilgan ma‘muriy hududda jamoat tartibini saqlash, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlarini, qonuniy manfaatlarini, mol-mulkularini turli xil jinoyiy tajovuzlardan himoya qilish hamda xavfsizlikni, shuningdek, huquqbuzarlik profilaktikasini ta‘minlash borasidagi faoliyatni amalga oshiradi.

Profilaktika (katta) inspektorlari huquqbuzarliklar profilaktikasini qonunda berilgan vakolatlar doirasida fuqarolik jamiyati institutlari imkoniyatidan unumli foydalangan holda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish, g‘ayriijtimoiy xulq-atvoriga ega va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, profilaktik ta‘sir ko‘rsatish orqali ularning xulq-atvorini tuzatish, fuqarolarni huquqbuzarliklarning turi, sodir etish usuli va vositalari, ijtimoiy xavfi, salbiy oqibatlar haqida ogohlikka chaqirish, huquqbuzarliklardan jabrlangan va jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularning xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarlikdan jabrlangan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etgan va unga moyil shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiya qilinishi va ijtimoiy moslashtirilishida ko‘maklashadilar. Mazkur faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida profilaktika (katta) inspektorlarining bugungi kunda keng jamoatchilik, shu jumladan, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi muhimdir.

Profilaktika (katta) inspektorlari ma‘muriy hududda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini g‘ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va

fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish bo'yicha xizmat faoliyatini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 4-moddasida¹ belgilangan huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda profilaktika (katta) inspektorlari fuqarolik jamiyati institutlari bilan quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik qiladi:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ma'muriy hududda qonuniylikni mustahkamlash;
- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish choratadbirlarini ko'rish;
- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan, ilgari sudlangan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'rish;
- jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish.

Shuningdek, mazkur qonunning 21-moddasiga¹⁵ asosan profilaktika (katta) inspektorlari huquqbuzarliklarning profilaktikasida fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan quyidagi yo'nalishlarda ishtirok etadi:

tegishli hududda jamoat tartibini ta'minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishi hisobga olinishini tashkil etishda, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda ularning huquqlarini himoya qilishda;

- ro'yxatdan o'tkazilmagan diniy tashkilotlar faoliyatiga chek qo'yish, fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligiga bo'lgan huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, diniy qarashlarni majburlab singdirishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqishda;

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 май кундаги «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни. <https://lex.uz> ¹⁵ Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 май кундаги «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни. <https://lex.uz>

Profilaktika (katta) inspektorlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi normativ-me‘yoriy hujjatlarida belgilangan xizmat vazifalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik qiladi:

- ma‘muriy hududni profilaktik ko‘zdan kechirish va kriminogen vaziyatni tahlil qilish;
- ma‘muriy hududda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash;
- ma‘muriy hududda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish;
- fuqarolarni qabul qilish, ularning ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish va hal etish;
- ma‘muriy huquqbuzarliklarni aniqlash va ular to‘g‘risidagi ishlarni yuritish hamda hal qilish;
- ma‘muriy hududda pasport-viza va nazorat-litsenziyalash qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash;
- faoliyati taqiqlangan tashkilotlar, diniy-ekstremistik guruhlar va shu kabi faoliyatga aloqador bo‘lgan shaxslarni aniqlash;
- ma‘muriy hududda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish choralari ko‘rish;
- jinoyat sodir etib sud va tergov organlaridan yashirinib yurgan, bedarak yo‘qolgan shaxslar, axloq tuzatish ishlari tariqasida jazodan bo‘yin tovlab yurgan mahkumlarni qidirib topish, shaxsi noaniq murdalarning shaxsini aniqlash;
- ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarga (muayyan huquqdan mahrum etilgan, shartli va axloq tuzatish ishlariga) hukm qilingan shaxslarga nisbatan profilaktik-nazorat ishlarini amalga oshirish;
- olib qochilgan, o‘g‘irlangan (va shu kabi) transport vositalarining qidiruvini tashkil etish;
- huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarga yordam ko‘rsatish ishlarida ishtirok etish;
- favqulodda hodisalar oqibatlarini bartaraf etish;
- xizmat hududida yashayotgan aholi bilan har oyda bir marta hisobot uchrashuvlari o‘tkazish, mazkur uchrashuvlar jarayonida fuqarolarga mahalladagi vaziyat, sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarlik tafsilotlari hamda ularning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari to‘g‘risida tushuntirish, mahallada fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, jamoat tartibini saqlashda ushbu mahalla ahli hamkorligida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar, jumladan tungi qorovulliklar, jamoatchilik

nazorati maskanlarida navbatchiliklar tashkil etish, mahalla ahlining ijtimoiy muammolarini hal etishda kommunal idoralarni jalb etish;

- ma'muriy hududda huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish, ular orasida qonunlarga itoatkorlik va yuksak darajadagi axloqiy sifatlarga ega bo'lish hissini uyg'otish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish;

- ekstremizm va diniy aqidaparastlikka qarshi kurash borasida xizmat hududida ekstremistik oqim tarafdorlarini, ayniqsa, ushbu oqim ta'siriga tushib qolgan yoshlarni aniqlash;

- terrorizm va diniy ekstremizm, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi jinoyatlar sodir etib, jazoni o'tab qaytgan va jazo o'tayotgan shaxslarning oila a'zolari va ushbu oilalarga kelib turuvchi shaxslarni tarbiyalash, ular tomonidan takror huquqbuzarlik sodir etilishi hamda ularning farzandlari ekstremistik g'oyalarga berilib ketishining oldini olish maqsadida yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar o'tkazish hamda mahalla faollari, shuningdek, obro'li mahalla fuqarolarini bu toifa shaxslarga murabbiy etib biriktirish;

- mahallada missionerlik va prozelitizm yo'nalishida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borayotgan shaxslar yoki guruhlarini aniqlash va ularga nisbatan qonun doirasida choralar ko'rish, din qo'mitasi vakillari, mahalla faollari bilan hamkorlikda bu yo'nalishda aholi bilan tushuntirish ishlarini olib borish;

- xizmat hududida yashayotgan voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularning qonun bilan kafolatlangan huquqlarini himoya qilish borasida ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni tashkil etish;


- jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil, tarbiyasi og'ir yoshlarni, shuningdek, voyaga yetmaganlarni jinoyatga jalb qilayotgan shaxslarni aniqlab, ular bilan profilaktik-ogohlantiruv tadbirlarini olib borish;

- voyaga yetmaganlarni turli salbiy ta'sirlardan saqlash ishlarini amalga oshirish;

- mahallada voyaga yetmaganlarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini tashkil etish;

- hududda voyaga yetmaganlar qarovsizligi, nazoratsizligi, huquqbuzarligi va jinoyatchiligining ahvoli, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida takrorlamaslik bo'yicha hokimiyatlar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga, ta'lim muassasalariga hamda «Yoshlar ittifoqi» tashkilotiga taqdimnoma va takliflar kiritish;

- hududda yashovchi, fohishalik va qo'shmachilik bilan shug'ullanuvchi, fohishaxona va bangixonalar saqlovchi hamda axloqiy buzuvchi harakatlarni namoyish



etadigan videofilmlarni, gazeta va jurnallarni targʻib qiluvchi va odam savdosi bilan shugʻullanuvchi shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan taʼsir choralarini qoʻllash;

– aholi yashash joylarida fuqarolar tomonidan pasport tizimi qoidalariga rioya qilinishini taʼminlash. Xizmat hududida roʻyxatdan oʻtmasdan yoki pasportsiz yashayotgan, shuningdek, haqiqiy boʻlmagan pasportga ega shaxslarni aniqlash maqsadida xizmat hududidagi xonadonlarni muntazam ravishda tekshirib, huquqbuzarlarni aniqlash va qonun doirasida ularga nisbatan choralar koʻrish;

– toʻy, maʼraka va aholining koʻp qismi qatnashadigan boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etish va ularni oʻtkazishda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari bilan hamkorlikda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish hamda ularning faoliyatini nazorat qilish;

– jamiyat qoidalariga zid ravishda turmush kechirayotgan shaxslarni, shuningdek, doimiy yashash joyiga ega boʻlmagan daydilarni, chorrahalarda tilanchilik qilib yurganlarning shaxsini aniqlash;

– adashgan, oʻzboshimchalik bilan uyidan, maxsus oʻquv muassasalaridan ketib qolgan yoki qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni «Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam koʻrsatish markazi»ga yuborilishini taʼminlash;

– muntazam ravishda shaxsiy qurolga ega boʻlgan, nazorat-litsenziyalash tizimi obʻektlarida ishlovchi fuqarolar hamda ular bilan birga yashovchi shaxslarning turmush tarzi, xulq-atvori, mahallada tutgan oʻrnini oʻrganib borish;

– noqonuniy ravishda qurol-yarogʻlar va portlovchi materiallarni saqlash uchun belgilangan javobgarlik choralari, ularni oʻz xohishi bilan topshirgan shaxslarga javobgarlik choralari qoʻllanilmasligini uqtirishga oid uchrashuv, suhbat va maʼruzalarni oʻtkazish jadvallarini ishlab chiqish va tatbiq etish, bu borada ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish idoralari imkoniyatlari va targʻibotning boshqa usullaridan keng foydalanish;

– yongʻin xavfsizligini taʼminlashda mahalladagi har bir xonadon, tashkilot va muassasalarda, oʻquv yurtlari, savdo va aholiga maishiy xizmat koʻrsatish shaxobchalarida Davlat yongʻin nazorati xodimlari bilan hamkorlikda, yongʻin xavfsizligi qoidalariga rioya qilish boʻyicha nazorat oʻrnatish va qoidabuzarliklar aniqlanganda aybdorlarga nisbatan maʼmuriy bayonnomalar tuzish, yongʻin oʻchirish moslama va uskunalaridan foydalanish tartibi va yongʻinning kelib chiqish sabablari hamda qonunbuzarlarga nisbatan koʻriladigan choralar toʻgʻrisida aholi oʻrtasida tushuntirish ishlarini olib borish;

– mahallalardagi yongʻinga qarshi suv havzalarining holati, yongʻin oʻchirish vositalari, koʻcha va oʻtish yoʻllari, aloqa tarmoqlarining mavjudligi va sozligini nazorat qilish, nosozliklar aniqlanganda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish

organlari, yong‘in xavfsizligi xizmati xodimlari va boshqa tegishli idoralar bilan hamkorlikda nosozliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

– favqulodda vaziyatlar, ya‘ni tabiiy ofatlar (er qimirlashi, suv bosishi, bo‘ron, ko‘chki, yong‘in va boshqalar) paytida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlardan aholini xabardor qilib, vaziyat to‘g‘risida maxsus xizmatlarga zudlik bilan xabar berish, davlat, jamoat va fuqarolarning mulklarini qo‘riqlash, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishda jamoatchilik vakillarini safarbar qilish va jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish².

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda profilaktika (katta) inspektorlari fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda axborot almashinuvini samarali yo‘lga qo‘yishlari shart. Mazkur hamkorlikning to‘g‘ri va samarali tashkil etilishi nafaqat huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, balki jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlashga ham xizmat qiladi.

O‘tgan qisqa davrda aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo‘yicha «mahalla — sektor — Xalq qabulxonasi — mahalla» tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o‘rtasida ishonchli «ko‘prik» bo‘lishini amalda ta‘minlash, oila va xotinqizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi³.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida qonun/lex.uz, 2014.10.04
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida/Sh.T.Ikramov/Toshkent/2015
3. Lex.uz internet sayti tizimi ma‘lumotlari

² Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 май кунидаги «Ўзбекистон Республикасидаги ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни. <https://lex.uz>

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2017 йил 10 апрелдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 2018-йил 18-февралдаги ПФ 5938-сонли фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. –2020.